

Amir Temur davlat boshqaruvida adolat timsoli

Yunusova Ozoda, Tarix, 201-gurux.

Ilmiy rahbar: B.M.Mirkomilov. dotsent, t.f.n.

Annotatsiya: maqolada Amir Temur davlat boshqaruvida adolat g'oyasining ijtimoiy-falsafiy va siyosiy jihatlari bayon etilgan.

Аннотация: В статье рассмотрены социально-философские и политические аспекты идеи справедливости в правлении Амира Темура.

Annotation: The article describes the socio-philosophical and political aspects of the idea of justice in the administration of Amir Temur.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, adolat g'oyasi, mashvarat, jang san'ati, soliqlar taqsimoti, teglik g'oyasi

Ключевые слова: государственное управление, идея справедливости, консультации, боевые искусства, распределение налогов, идея равенства.

Keywords: public administration, the idea of justice, consultation, martial arts, tax distribution, the idea of equality

Amir Temur yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli markazlashgan davlat asoschisi. Temur yoshlik chog'laridan chavandozlik, ovchilik, kamondan o'q uzish va turli harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Amir Temur og'ir, bosiq va nihoyatda ziyarak inson bo'lgan. U bolaligida do'stlari bilan birga mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etardi. Shu asnoda uning sarkardalik qobiliyati yetilib borgan.

Amir Temur tarix sahnasiga Chig'atoy ulusining uzil-kesil parchalanib borishi davrida chiqdi. Parchalanish jarayoni XIV asrning 40-yillarida sulolaviy nizolar va o'zaro feodal kurashlarning kuchayishi oqibatida boshlangan edi. [Amir Temur va Ulug'bek davri tarixi. O'z .Fan. T. 1996-yil, 71-bet.]

Bunday siyosiy vaziyatdan Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur foydalanib qoldi. U Movarounnahrda bostirib kirdi. Chig'atoy beklari birlashaolmay, o'z xalqini o'z holiga tashlab, qochib ketishgan. Faqat Temur boshqacha yo'l tutdi. U Tug'luq Temurning xizmatiga kirdi. Tug'luq Temur unga Kesh

viloyati va uning atrofidagi yerlarni topshirdi. Keyinchalik o'zining bu qilmishini Temurbek aholini mo'g'ullar tomonidan talon-taroj etishdan himoya qilishning bir yo'li, ya'ni puxta o'ylangan reja, yuz ming kishilik qo'shindan kuchli, deb izohlaydi. [Amir Temur va Ulug'bek davri tarixi. O'z.Fan. T. 1996-yil 73-bet.]

Amir Temur nikoh tufayli Balx hokimi Amir Husayn bilan ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi birlashadilar. Amir Temur Seistonda bo'lgan janglarda o'ng qo'li va o'ng oyog'idan jarohatlandi. [Ibn Arabshoh "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur." T. 1992 –yil.]

1364- yilda Temur va Amir Husayn mo'g'ullarni Movarounnahr hududidan quvib chiqardi. Biroq mo'g'ullar 1365- yilning bahorida yana Turkistonga qo'shin tortdi. Bu tarixdagi "Loy jangi" edi. Bu jangda mo'g'ullar g'alaba qozondilar. Ammo mo'g'ullar sarbadorlar qarshiligiga uchrab, Samarqandni tark etishga majbur bo'ldi. 1370- yil iyulda Samarqandda chaqirilgan qurultoyda Amir Temurning oily hokimiyati tan olindi. Shunday qilib Amir Temur o'z hayotida olibborilgan yurishlar natijasida Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi.

Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoli-g'arbida Quyi Volga, Don bo'ylari, shimoli-sharqda Balxash ko'li va Ili daryosigacha, janubi sharqda va Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlar bo'ysindirildi. [Axmedov B. Sohibqiron Temur (Hayoti va ijtimoiy- siyosiy faoliyati). T; 1996-yil.]

Amir Temur davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning "...davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim" [Temur tuzuklari forschadan Alixon Sog'uniy va H. Karomatov tarjimasi. T; 1991-yil.], - degan so'zlari buning yaqqol dalilidir. El – yurtni boshqarishda harbiy kuchning ahamiyatini yaxshi tushungan Amir Temur qo'shinining tuzilishiga katta ahamiyat bergan.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, dastlabki vaqtlardayoq mamlakatda ro'y bergan o'gir iqtisodiy tanglikni bartaraf qilish uchun eng avvalo soliq tizimini tartibga soldi. Davlat soliqlarini yig'ishda aminlar, kalontarlar va soliq yig'uvchilarni raiyatga nisbatan insofli va adolatli bo'lishga, qonunga xilof ish tutmaslikka chaqirdi, chunki saltanatning barqarorligi ko'p jihatdan aholining hol-ahvoli, uning davlat va davlat boshlig'iga bo'lgan sadoqatiga bog'liq.[Axmedov B. Sohibqiron Temur (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). T; 1996-yil.] Amir Temur nafaqat o'z xalqini, balki zabt etilgan mamlakatning aholisini ham imkoni boricha qonun himoyasiga olgan.[Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T; 1997-yil] . Ularni asirlik va talon-tarojlardan saqlagan.

Yuksak madaniyat sohibi Alisher Navoiyga Temurning ilm va madaniyat ahliga ko'rsatganga' an g'amxo'rliги juda yoqar edi. Bu haqida Navoiy shunday deydi: " Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat- ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oily majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi"[Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T; 1997-yil].

Ma'lumki, 1941- yilning iyun oyida ilmiy maqsadlarda Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasidagi qabrlar, shujumladan Temur qabri ham ochilgan edi. Shundan so'ng shu yilning iyun oyida 1941-1945 yillardagi urush boshlandi. Buni xalq Temur oromining buzilganligi bilan bog'lab, uning maqbarasidan tashqariga urush ruhi otilib chiqdi deb hisoblaganlar .Albatta buso'zlarni kishilar to'qib chiqqan rivoyat deb hisoblaymiz [Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T; 1997-yil]. Ammo , yuqoridagilarga asoslangan holda buyuk hukmdor bobomizning olib borgan tarixdagi faoliyatini aql va idrok bilan olib borilgan siyosat deb tushunamiz hamda qilingan butun yaratuvchilik faoliyani Temurning davlat boshqaruvidagi adolatli boshqaruvning natijasi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amir Temur va Ulug'bek davri tarixi. O'z .Fan. T. 1996-yil, 71-bet .
2. Amir Temur va Ulug'bek davri tarixi. O'z.Fan. T. 1996-yil 73-bet.
3. Ibn Arabshoh "Ajoyib al-ma'qdur fi tarixi Taymur." T. 1992 –yil.
4. Axmedov B. Sohibqiron Temur (Hayoti va ijtimoiy- siyosiy faoliyati). T; 1996-yil.
5. Temur tuzuklari forschadan Alixon Sog'uniy va H. Karomatov tarjimasini. T; 1991-yil.
6. Axmedov B. Sohibqiron Temur (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). T; 1996-yil.
7. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma". T; 1997-yil.
8. Amir Temur va Ulug'bek davri tarixi. O'z Fan. T. 1996-yil, 45-bet.
9. Правда,30-октября 1992 г; Каюмов Малик. Восток аршинам не измерить; Литературная газета, 25-августа 1993 г.